E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

# Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida hikoyalash asosida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi

**A.Sultanova**
Nukus davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili kafedrasi dotsenti

**N.Allasheva**
Nukus davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida hikoyalash orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросам совершенствования устной и письменной грамотности учащихся посредством рассказывания историй на уроках родного языка начальных классов.

**Annotation**: This article is devoted to the issues of improving the oral and written literacy of students through storytelling in the lessons of the native language of primary school.

**Kalit so‘zlar:** Nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetentsiya, tinglab tushunish, video topishmoq, pedagogik texnologiya, mashq, metod.

**Ключевые слова:** Речевая компетенция, Лингвистическая компетенция, аудирование, видео загадка, педагогическая технология, упражнение, метод.

**Keywords:** Speech competence,linguistic competence, listening, video puzzle, pedagogical technology, exercise, method.

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang‘ich ta’lim darsiiklari va metodik qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda. Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standartining kirish qismida „Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi», deb alohida ta’kidlangan.

Bugungi axborot texnologiya rivojlangan asrda ta’lim jarayonida audio kitoblar, video lavhalardan, multimedia vositalaridan foydalangan holda dars o‘tish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bolalarni qayta hikoyalashga o‘rgatishda audio kitoblardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, hayvonlar haqida quyidagi ertakni eshittirib, bolalarga qayta hikoyalashni topshirish mumkin. Bu bilan ularning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtiribgina qolmasdan, xotirasini ham mustahkamlash mumkin.

**“Ona tili” fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarda quyidagi xususiy kompetentsiyalar shakllantiriladi:**

**Nutqiy kompetentsiya:**

— Tinglab tushunish;
— Fikrni og‘zaki bayon qilish;
— O‘qish;
— Fikrni yozma bayon qilish.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

**Lingvistik kompetentsiya:**
- fonetika (orfografika, grafika)
-leksik;
-grammatik;

**Nutqiy kompetensiya** shakllantirilganda og‘zaki tuzilgan gap yoki nutqni yozma ko‘rinishga o‘tkazish, gapni qayta qurish kabi topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunga to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish ishlari birgalikda amalga oshiriladi. Ona tili ta’limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi. Shunday ekan, ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch parametrli standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi, ya’ni o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish.

**Tinglab tushunish.** O‘qituvchi va suhbatdoshining nutqini, eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi ommaviy axborot vositalaridagi axborotlarni tushuna bilish M: “Bizning oila” mavzusidagi matnni diqqat bilan kuzating. Matnni o‘qituvchi yoki o‘quvchilardan biri *ifodali o‘qib beradi.* O‘quvchilar diqqat bilan tinglaydilar. Mazkur xususiy kompetentsiya bilan birgalikda tayanch kompetensiylardan *kommunikativ, shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirish* kabilari shakllantiriladi. Bundan tashqari odobnoma fanining *tanqidiy tafakkur qilish (o‘z ustida ishlash, o‘qish, o‘rganish, izlash, analiz, va sintez qilish, xulosa chiqarish),* matematika fanining xususiy kompetensiyalaridan *matematik tushunchalarni tushunish va anglash kompetensiyalari* shakllantirib boriladi.

**Fikrni og‘zaki bayon qilish**
— тovushlar talaffuziga rioya qilish:
— tovush va harfni farqlay olish;
— so‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrata olish;
— ruxsat, uzr so‘rash, iltimos kabi nutq madaniyatiga doir murojaat qoidalariga amal qilish.

**Lingvistik kompetentsiya.** Ona tilida o‘z fikrini bog‘lanishli bayon qila olishi. Buning uchun ona tilining fonetika, leksika, grammatika bo‘limlariga oid bilimlarini o‘zlashtirishi va nutq faoliyatining asosiy turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish malakalarini egallashi.

Ulug‘ bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino: “Axloqiy tarbiyada eng muhim vosita bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda yakkama-yakka suhbatda bo‘lish, unga nasihat qilishdir”, - deganlar.

Darhaqiqat, inson eng oliy qadriyat bo‘lganligi tufayli, uning qalbi nozik, farosati kuchlidir. Har bir o‘quvchining diliga yo‘l topib , uni tinglab chora topish ham mushkul. Ta’lim-tarbiya tushunchasi mohiyatan juda ahamiyatli tushunchadir. Yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, jismonan va ma’nan sog‘lom bo‘lishini ta’minlash barchamizning burchimizdir. O‘qitish jarayonidagi asosiy tarbiyaviy elementlar:

- So‘zlash (gapirib berish)
- Ko‘rsatish (namoyish qilish)
- Mashq (amalda bajarib ko‘rsatish)

Bolalarni o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali qurollaridan va turli-tuman qiziqish uyg‘otuvchi o‘yinlardan foydalanish, interaktiv usullarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda nazariy ma’lumotlar boy manbalar orqali tushuntirilgach, darsning mustahkamlash bosqichida “Nihol parvarishlash” degan o‘yin usulidan foydalanish mumkin. “0t so‘z turkumi” mavzusini o‘rganishda, avvalo, ot so‘z turkumi haqidagi qisqa nazariy ma’lumot misollar, ko‘rgazmali qurollar yordamida tushuntiriladi. Darsni mustahkamlash bosqichida nihol rasmi chizilgan rasm o‘quvchilar e’tiboriga qaratiladi. Nihol yaproqlariga mavzuga doir savollar yozilgan bo‘lib, bu savollarga javob bergan o‘quvchilar

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

rasmdagi niholga qo‘yib chiqadilar. Shu zaylda yaproqlari bo‘lmagan nihollarga yaproqlar ilib chiqiladi va bolalarga tevarak-atrofni ko‘kalamzorlashtirish lozimligi va buning foydali jihatlari uqtiriladi. Kimning niholi ko‘proq bo‘y cho‘zganligi tekshiriladi va shu o‘quvchiga rag‘bat kartochkasi topshiriladi. Shu o‘quvchi yozgan bargchalari kam bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lsa, ularga darsni to‘liq anglashi uchun qo‘shimcha darslar olib boriladi. Savollarni tuzishda maqol va topishmoqlardan, hikmatli so‘zlardan foydalanish bolalar tarbiyasi va nutqini o‘stirishda juda muhim.

Bu usul o‘quvchilar nutqini oshiradi va o‘qituvchi uchun ham qisqa vaqt ichida har bir o‘quvchining qay darajada bilim egallaganini anglashi uchun ancha qulaylik yaratadi. Bu metodning tarbiyaviy jihati shundaki, har bir o‘quvchi yoshligidan tinglashni o‘rganadi. O‘z sinfdoshlarining gapirishga e’tibor berib fikr yuritishni, odob-axloq va madaniyatni o‘rganadi.

2-sinfda «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 2-sinfda 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

***Uy hayvonlari:*** *sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.*

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: *Ot - insonning eng ishonchli do‘sti.*

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

**«Video topishmoq» metodi.** Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Video topishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e'tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Masalan, «Elektr jihozlari», «Yil fasllari» kabilar asosida o‘quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

**Navro‘z udumlari** (foydalanish uchun matnlar)

*Navro‘z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi. Ginali odamlar Navro‘z kuni yarashadi.Navro‘z arafasida keksalar maxsus idishlarga yetti xil don ekib, ularning unib chiqishiga qarab, kuzda olinadigan hosil cho‘g‘ini chamalashgan. Ba'zi joylarda esa Navro‘z kunlarida paydo bo‘lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go‘yo yil seryog‘in va barakali bo‘lar ekan.Navro‘z kunlari bog‘dagi o‘rik daraxtlariga arqon solib arg‘imchoq yasaladi. Qiz-juvonlar yig‘ilishib, navbatma-navbat arg‘imchoq uchadilar. Navro‘zda arg‘imchoq uchsa bir yillik gunohi to‘kiladi deyilgan.*

Bu metodni 2-sinfda o‘quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo‘llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko‘rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni ifodalaydigan

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

rasmlar koʻrsatiladi. Oʻquvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda oʻquvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, soʻz boyligi oshadi.

Oʻqituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilgʻor pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Tushunish, idrok etish, oʻzini oʻzi boshqarish, fikrni aniq, aniq va batafsil tushuntirish qobiliyatiga, interfaol oʻqitish usullari orqali “Men” tezda rivojlanadi va ijobiy samara beradi. Oʻqitishda interfaol metodlardan foydalangan holda oʻquvchilar oʻrtasida raqobat muhiti yaratildi, bu oʻquvchilarning oldinga siljishiga imkon berdi, natijada birgalikda o’rganishni boshlaydilar. Har qanday interfaol usul oʻquvchilarni maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga oʻrgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu oʻqituvchi asosiy javobgar shaxs boʻlgan ta’lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi oʻquvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma’lumot berishdir.

Oʻquvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va ularga moyil boʻlishlariga va fe’l-atvorning xilma-xilligiga qaramay, oʻqituvchi oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga oʻrgatishi kerak. Bunda oʻquvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir, oʻqish, chizmalar chizish, loyihalarning formulalarini tushunish, bir-biri bilan doʻstona munosabatda boʻlish, oldida turgan muammolarni hal qilishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`grisida. // Prezident Farmoni.

“Xalq so`zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – № 9. – B. 1

2.A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. ”Ta’limda innovatsiya” Toshkent -2010

3.Jo’rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o’tish. Sinf rahbarlari uchun qo’llanma. - T.:O’qituvchi, 1994 y.

4. Tal’at G‘afforova.“Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent– 2011.

5. Mehriddinov Z.Isamuhammedov O." Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014

6.Berdimuratov E., Pirniyazov J., Allanazarov Q., Uspanova J. Oqiw kitabi uliwma orta bilim beriw mekteplerinin’ 4-klasi ushun sabaqliq. – No’kis: Qaraqalpaqstan, 2017. – B. 57.

**7.**Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент: « Fan va texnologiya », 2012. – 160 б.

WORDLY KNOWLEDGE